

UY-RO'ZG'OR BUYUMLARIGA OID SO'ZLARING LUG'ATLARDA BERILISHI

Nurchayeva Malika Bobomurod qizi
Qarshi davlat universiteti filologiya va
tillarni o'qitish (o'zbek) tili 2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18383126>

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy tillarda uy-ro'zg'or buyumlari leksikasining oshxonaga oid birliklari va ularning leksik, semantik jihatlarini yoritib berilgan. Maqoladan ko'zlangan maqsad turkiy tillardagi ro'zg'or buyumlari nomini, ularning ba'zi tillardagi farqlarini solishtirish, hamda turli madaniy jihatlarini o'rganishdan iborat.

Kalit so'zlar: leksika, qadimgi turkiy til, uy-ro'zg'or buyumlari, til, madaniyat.

Аннотация: В статье рассматриваются лексико-семантические аспекты кухонных единиц лексики предметов домашнего обихода в современных тюркских языках и в современных тюркских языках. Целью статьи является изучение изменений в наименованиях предметов домашнего обихода в тюркских языках, а также выявление различий в культурном содержании, сложившихся в разных языках.

Ключевые слова: лексика, древнетюркский язык, предметы быта, язык, культура.

Annotation: This article examines the lexical and semantic aspects of the kitchen-related units of the vocabulary of household items in modern Turkic languages and contemporary Turkic languages. The aim of the article is to change the names of household items in Turkic languages, and the differences in the languages developed in cultural content

Keywords: lexicon, Old Turkic language, household items, language, culture.

Insoniyat hamjamiyati mavjud ekan, u ko'plab fan, soha va ijtimoiy hayot bilan bog'liq turli doiralarda o'z faoliyatini olib boradi, shu bilan birga, rivojlanish natijasida turmush tarzi, turli ro'zg'or faoliyati bilan bog'liq asbob – anjomlarga bo'lgan talabi ham ortib boradi, natijada insonlar jumladan turkiy xalq vakillari o'z o'tmishlari mobaynida ko'plab asbob uskunalarni yaratganlar va ular bugungi kunga qadar ham turli nomlar ostida yoki to'raligicha yetib kelgan.

Ma'lumki, ro'zg'or buyumlari nomlari kundalik hayotimizda muhim o'rin egallaydi va jamiyat a'zolari tomonidan keng miqyosda qo'llaniladi, bunday so'zlarning qo'llanilishi va o'rganilishida qator manfaatli jihatlar mavjud. Jumladan, bu so'zlarni lug'at holatiga keltirish ham ularning ma'nosini tushinishda, to'g'ri qo'llash kabi qator jihatlarini bajarishda yordamchi vazifasni o'tashi mumkin. Ushbu maqolada oshxonaga oid ro'zg'or buyumlari nomlari turli lug'atlar yuzasidan ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi, shuningdek, ba'zi tillardagi va shevalardagi turli xil fonetik, leksik o'zgarishlar farqlanadi. Lug'atlar tilshunoslik sohasining muhim birligi bo'lib, tarjima jarayonlarida, tilning madaniy jihatlarini yoritishda asos vazifasini o'taydi.

Ta'kidlash lozimki, lug'atlar tilda mavjud so'zlarni turli xil mezonlar asosida bir joyga jamlovchi vositadir. Lug'atlar berilgan so'zning ma'nosini aniqlashda, talaffuzi bilan bog'liq jihatlarini yoritishda hamda qator lingvistik jihatlarini berishda qo'l keladi. Tilimizda bir qator tarjima, ensiklopedik va izohli lug'atlarni ko'rishimiz mumkin. Bu lug'atlarda so'zlar turli xil usullarda yoritilishi mumkin masalan ¹, S.Ibroximovning "Farg'ona shevalarining kasb – hunar leksikasi" nomli ilmiy ishida qozon turlarini ishlatilish o'rni va maqsadiga muvofiq nomlarga ajratgan, jumladan, ovqat qozon, hammom qozoni, yelim qozon, patila qozon, kir qozon, tuy qozon, kabilarga; shakliga qarab esa, ikki quloqlik qozon, uch quloqlik qozon, to'rt quloqlik qozon, toypoq qozon kabi turlarni sanab o'tgan.

o'choq-uchta tomoni yopiq bo'lib,ichiga o't yoqiladigan,ovqat pishirish uchun ustiga qozon o'rnatiladigan maxsus qurilma,uy-ro'zg'or buyumi.

O'choq qadimiy so'zlardan bo'lib,u turkiy tillarning yozma yodgorliklar tilida

Otçuq, Oçuq Oçaq (ДТС,362,373) өчык (Batmanov 205,232) очак (МК,3-бор,249), учак (Kurishjanov 210)), очак(temir ўчок)

(Attuhfa,1- bor,241), очак (Attuhfa 2- bor 357), очоғ (МК, 443), вучак (Tarjimon, 96) formalarida qayd qilinsa,keyngi davrlarda yaratilgan turkiy tarixiy lug'atlarda, очак,(tach (Dsch) von уч+ajak) очағ, очок, ожак, учак, ошак, tarzida berilgan.

Yozma yodgorliklarda va ba'zi tarixiy lug'atlarda o'choq ma'nosini ifodalovchi сачак (ўчок turkmancha) Attuhfa 1-bor,241 –b), сачак (Attuhfa 2-bor,372- bet) shu kabi leksik birliklar mavjud.giondagi turkiRegiondagi turki tillara esa, ўчок(o'zb), очак(uyg'r),,, ошак (qozoq),, очок (qirg'z), ожак (turkmn).Formalarida uchraydi

Manqal –ko'mir bilan yoqiladigan ko'chma o'choq ma'nosini bildiradi.Bu so'z ham o'z funksiyasi bilan qadimiy qbo'lib, manqal temir pechka (Ibotov,145),манқал –otshdon (sovuq kunlarda isitish uchun ustuga olov yoqiladigan to'garak temir idish) (НАЛ, 391) deb izohlanadi.

Manqal- o'zbek tili lug'atlarida mangalka,manqaldon (ЎЗБрел,250) fonetik formalari bilan ma'lum.O'zbek tilining janubiy xorazm shevasida анал –ангал-манқалдон (o't solib qo'yiladigan idish) (ЎХШЛ, 18) Turkman tilida bu birlik маннал fonetik variantida uchraydi **Kosov** –olovni to'g'irlash,tortish va shu kabilar uchun ishlatiladigan oddiy uzun yog'och yoki temir tayoq ma'nosini bildiradi.

Kosov – so'zi tarixiy yodgorliklar tilida кузäкү (gäli , halı döşemiş ёзм бошча, роўча,)kosov (МК, I, 418), косов (Аттуфа 221) кәсäv кәсәги- косов (АТТухФА 328) қўсав- o't kavlaydigan asbob, кесов, косов (НАЛ 328) kabi

Kosov- regiondagi tillarda косов (o'zb.), көсәй (uyg'.), көсәу (qozoq.), көсөө, көзөө(qirg'). кесеви (turkm.), formalarida uchraydi.

Qisqich –narsalarni jumladan cho'g',o'tin ko'mir va shu kabilar qisib ushlash uchun ishlatiladigan uy buyumlarining umumiy nomi, bu nom qadimgi tillarda қисқич (uzb), қисқач (uyg'), қысқыч (qozq), қысқач (qirg'), қысқыш(ққ) гысгач (turkmn) kabi formalarda uchraydi.

Otashkurak-o't,olov kul olish uchun ishlatiladigan sopli kichik temir kurakcha bu so'zning funksiyasida qadimgi yozma yodgorliklar tilida ёвусак, осак -otashkurak (АТТухФА ,I,174,241).Buyerdagi осак formasi E.Fozilov tadqiqotida оса formasida berilgan va ko'mir qisqich (АТТухФА,II, 360) deb izohlangan. Qirg'iz tilining chotqol shevasida аташ, көзөөв (Абдуллаев,83).Talas shevasida аташ курөк (Ахматов 70,73), formalarini ko'rishimiz mumkin. Otashkurakning funksiyasiga yaqin sinonim sifatida o'zbek tilida оловкурак so'zi ham mavjud bo'lib, u o'zbek tilinng shevalarida оловкурак (Andijon,Қо'қон), олоП курак (Namangan), олов курак (Toshkent obl.Soylik), qirg'iz tilning suzaq grupp shevalarida алагурөк, алоо курөк, алагурек (Маккамбойев,60), fonetik variantlari uchraydi.

Tandir- non pishirish uchun maxsus qurilgan qurilma. Qadimgi yodgorliklar tilida mazkur нон тандур, таннур (Ибатов, 199), танур (НАЛ, 105), formalari uchraydi.

Maskur, turkiy tillar oilasida tandir formasi quyidagi leksik birliklar orqali ifoda etiladi : uzb. тандир; uzb. Dial. тонур (Namangan) (Алийев,189);uyg' тонур(p) ; uyg'.dial. тонур (Kumul shevasi)

(Малов, 185) туну (р) (кучар шеваси) (Малов, Унс 126) тандыр (Садвақасов ЯУ ФД. 198); qozq. Тандыр ; qirg'. Тандыр,дандир, нандыр ; qq. Тандыр; turkman тамдир va non pishirish uchun maxsus yasalgan qurilma ma'nosini anglatadi. Demak, tandirning qadimgi va Navoiy asarlari tilidagi *тонур* formasi uyg'ur tili va uning shevalarida, o'zbek tilining Namangan shevasida saqlangan bo'lib, boshqa turkiy tillarda uning ikkinchi varianti -нд -мд (. Тандир, тамдыр, тандур) mustahkamlanib qolgan.

Chakich -non hamirini chakichlash uchun dastali yog'och kallaka, bir tekisda sim qoqib yoki parranda parlarini dastalab bog'lab yasalgan uy-ro'zg'or asbobi nomi. chakich yasalishi nuqtayi nazaridan sim chakich, pat chakich kabi turlarga bo'linadi. Chakich funksiyasida qadimiy yodgorliklar tilida *tiküc* (ДТС, 559) *тикуч* -chakich novvoylik kasbiga xos termin (МК, I, 339) deb izohlanadi. Qadimgi *тикүч* so'zi hozrgi zamon o'zbek tilida chakich uning shevalarida *тикач* (Манғит, Гурлан, Янгибозор, Бешкент, Андижон) *тукеч* (Урганч, Хонқа, Хазорасп) (Ўхшл, 257) uyg'ur tilida *тукуч, чакуч, чекуш*, uning Do'lan shevasida *текуш* (МАЛОВ, УНС, 158), Qozoq tilida *тикеш*, uning Turkmaniston, Toshkent, Ko'xna Urganch, Bayramali, Maridagi qozoq shevalarida *тикеш* (Қозтдс, 350), Qirg'iz tilida *чеккуч*, Qoraqolpoq tilida *тикеш*, Turkman tilida *чекич* fonetik variantlari bilan ma'lumdir.

Rapida - non hamirini tandirga yopish uchun ishlatiladigan buyum nomi. tarixiy lug'atlarda bu so'z to'g'risida ma'lumot kuzatilmagan. Lekin hozrgi zamon o'zbek tilida *rapida*, uning Turkiston shevasida *лепте* (ЖҚЎШ, 127), Iqon shevasida *лайта* (Ўхшл, 171), uyg'ur tilida *репида*, Qozoq tilining Turkmaniston, Toshkent atrofidagi qozoq, Ko'xna Urganch va shu kabi Qozoq grupp shevalarida *репиде* (Қоз дс, 276), Qirg'iz tilining Janubiy Tyan -Shan grupp shevalarida *рапте* (Йудахин, 615), Qoraqolpoq tilida *репийде*, Turkman tilida *репиде* fonetik variantlarni ko'rishimiz mumkin.

Qozon -ovqat pishirish yoki suv isitish uchun belgilangan maxsus quyma cho'yan yoki misdan yasalgan idish.

Qozon qadimiy so'zlardan bo'lib, turkiy tillarning yozma yodgorliklarida Qazan (Куришжанов, 154), Qazan (Ибатов, 128), казан (АТТухФА, II, 332) qazan (МА, 124, 351, 444), Qazan (БЛ, 192), Qazan (Келурноме, 90), Qazan Қазған-mis qozon (Таржумон, 104) fonetik variantlari ovqat pishiradigan idish ma'nosida keladi.

Qozon regiondagi tillarda Қазон(ўзб.), Қазан(уйғ., ққ., қозқ.), казан (қирғз.), газан (туркман.) fonetik variantlarda uchrab, ovqat pishirish yoki suv isitish uchun mo'ljallangan idish ma'nosida ishlatilgan.

Tuvog' - qozonning qorqog'i. Qadimgi turkiy tilda bu ma'noda *тој ашич* - qozon tuvog'I (МК, III, 155), қапғақ-қорқоқ (МК, I, 437) so'zlari ishlatilgan. Hozrgi zamon o'zbek tilida *тувоқ*, uyg'ur tilida *тувақ*, qirg'iz tilida *тубақ* fonetik variantlari bilan qozon qorqog'I variantlari shakillangan. Qozoq tilida *қақпақ*, Turkman tilida *гапак*, O'zbek tilining shahrisabz shevasida *қапқағ* (Б. Жўрайев, 140)- *тувоқ* ma'nosida sihlatiladi. O'zbek tilining shevalarida *тувоғ* (Тошкент), Jabubiy Xorazmda *дувақ* (Ўхшл, 262 90), Namangan, Turkiston shevalarida *тувек* esa qorqoq (Ўхшл, 262) ma'nosini ifodalaydi. Bulardan tashqari o'zbek tilining shevalarida *сарпош* (Бухаро, Қашқадарйо), *тизоқ* (Паркент) (Ўхшл, 234, 257), uyg'ur tilining Xo'tan shevasida *тулғақ*, Kurlya shevasida *тувақ* (Малов, УНС, 161) so'zlarining ham qozon tuvog'I ma'nosida ekanligi ham qayd qilinadi.

Tova – qovurma ovqat pishirish uchun xizmat qiladigan atrofi qayrilgan, yassi tutqichli,tutqichsiz metal idish. Това so'zi o'z funksiyasi bilan qadimiy bo'lib,tarixiy lug'atlarda. Това (АттухФА, 251), Тава(НАЛ, 610) kabi fonetik variantlarni uchratish mumkin.

Regiondagi tillarda Това (узб.),Тава (уйғ.), таба (қоз., қир.,ққ., туркмн.) formalarida shakillangan. Това so'zi fors tilida табе va Табе (Миллер, 104) fonetik variantlari uchraydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki lug'atlar avvalombor tildagi so'zlarning sofligini, boyligini saqlashda muhimdir,lug'atlar so'zlarning turli yo'snlarda ; qisqa,batafsil yoki umumiy manoda berilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb- hunar leksikasi.O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.Toshkent :1959.63 –bet.
2. I.Ismoilov, K.Meliyev,M.Saparov.O'rta Osiyo va Qozog'iston Turkiy tillari leksikasidan tadqiqot.